



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

11 (49) 2022

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
С.И. ИСМОЙЛОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
М.Ш. ХАКИМОВ
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com>

E: ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал

Научно-реферативный,

духовно-просветительский журнал

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

11 (49)

2022

ноябрь



Received: 10.10.2022
Accepted: 21.10.2022
Published: 10.11.2022

UDK 618.111-007.1

TUXUMDON ZAHIRASI PAST BO'LGAN KECH REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA OVULYASYONNI RAG'BATLANTIRISHDA KLOMIFEN SITRAT BO'LGAN MADDALARNING SAMARALI BAHOLANISH

Axmedjanova X.Z., Olimova K.J., Shukurov F.I.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston

✓ *Rezyume*

Maqsad: past tuxumdon zaxirali kech reproduktiv yoshdagi ayollarda ovulyatsiyasini rag'batlantirishda klomifen sitrat saqllovchi preparat samaradorligini baholash.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqotga 60 nafar past tuxumdon zaxirali ayollar kiritildi, ulardan, I- gruxni 30 nafar past tuxumdon zaxirali ayollar, II -guruxga 30 nafar tuxumdon zaxirasi o'ta past ayollar tashkil etdi. Nazorat guruxini - 20 nafar yosh reproduktiv yoshdagi ayollar tashkil etdi. Barcha ayollarga ovulyatsiyani rag'batlantirish maqsadida klomifen sitrat saqllovchi preparat berildi. Tuxumdonlar zaxirasini baholash uning biokimyoviy va exografik markerlarini o'lchash orqali amalaga oshirildi.

Natijalar va ularning muxokamasi. I-guruxda 23 (76,7%) nafar ayollarda ovulyatsiya sodir bo'lishiga erishildi. Ulardan 2 (11,7%) nafarida ovulyatsiya klomifen sitrat saqllovchi dorining dozasi 100mg.gacha oshirilganda, 5(29,4%) nafarida esa 150mg miqdorda berilganda sodir bo'ldi. Ushbu guruxning 15 (73,0%) nafar ayolida homiladorlik sodir bo'ldi. II- guruxda 21 (76,7%) nafar ayollarda ovulyatsiya sodir bo'lishiga erishildi. Ulardan 3 (10%) nafarida ovulyatsiya klomifen sitrat saqllovchi dorining dozasi 100mg.gacha oshirilganda, 2(29,4%) nafarida esa 150mg miqdorda berilganda sodir bo'ldi. Ushbu guruxning 15 (66,7%) nafar ayolida homiladorlik sodir bo'ldi.

Xulosa. Past tuxumdon zaxirali kech reproduktiv yoshdagi ayollarda ovulyatsiyani rag'batlantirishda klomifen sitrat saqllovchi preparatini qo'llash guruxlarda mos ravishda 76,7% va 70,0%da ovulyatsiyani sodir bo'lishiga va guruxlarga mos ravishda 73,0% va 66,7% ayollarda homiladorlik bo'lishiga olib keldi.

Kalit so'zlar: kech reproduktiv yosh, tuxumdonlar zaxirasi, ovulyatsiyani rag'batlantirish, klomifen sitrat o'z ichiga olgan moddalar.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ КЛОМИФЕН ЦИТРАТ СОДЕРЖАЩЕГО ВЕЩЕСТВА В СТИМУЛЯЦИИ ОВУЛЯЦИИ У ЖЕНЩИН ПОЗДНЕГО РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА С НИЗКИМ ОВАРИАЛЬНЫМ РЕЗЕРВОМ

Ахмеджанова Х.З., Олимова К.Ж., Шукуров Ф.И.

Ташкентская медисинская академия, Узбекистан

✓ *Резюме*

Цель: оценка эффективности применения кломифен цитрат содержащего вещества в стимуляции овуляции у женщин позднего репродуктивного возраста с низким овариальным резервом.

Материалы и методы. В исследование были включены 60 женщин с пониженным овариальным резервом, из них: I- основную группу вошли - 30 женщин с низким овариальным резервом и во II- 30 женщин с крайне низким овариальным резервом получавших кломифен цитрат содержащий препарат для стимуляции яичников, группу сравнения составили- 20 женщин аналогичной патологией, но отказавшихся от приема кломифен

цитрат содержащего препарата. Всем пациенткам для стимуляции овуляции была назначена кломифен цитрат содержащего вещества. Оценка овариального резерва у женщин была проведена с помощью оценки его биохимического и эхографического маркеров.

Результаты. В I группе больных овуляция была достигнута у 23 (76,7%) пациенток. Из них у 2-х (11,7%) овуляция наступила после второго цикла на дозе в 100мг и у 5 (29,4%) после третьего месяца овуляции на дозе в 150мг кломифен цитрат содержащего препарата в день. Беременность наступила у 15 (73,0%) больных этой группы: у одной больной в первом же цикле лечения при приеме 50мг кломифен цитрат содержащего препарата, у второй на третьем цикле стимуляции овуляции при дозе 100мг данного препарата. Во 2- группе больных овуляция была достигнута у 21 (70,0%) больных. У трех (10%) и у двух (6,7%) из них овуляция произошла после второго и третьего месяца стимуляции с применением 100-150мг кломифен цитрат содержащего препарата в день, Беременность наступила у 15 (66,7%) больных этой группы. Беременность в группе сравнения наступила у 3 (15,0%) пациенток.

Заключение. Применение кломифен цитрат содержащего препарата у женщин с позднего репродуктивного возраста с низким и крайне низким овариальным резервом приводит к индукции овуляции у 76,7% и 70,0% женщин соответственно, и наступлению беременности у 73,0% и 66,7% женщин соответственно.

Ключевые слова: поздней репродуктивный возраст, овариальный резерв, стимуляция овуляции, кломифен цитрат содержащий вещества.

EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF CLOMIPHENE CITRATE CONTAINING SUBSTANCES IN STIMULATION OF OVULATION IN WOMEN OF LATE REPRODUCTIVE AGE WITH LOW OVARIAN RESERVE

Akhmedzhanova Kh.Z., Olimova K.Zh., Shukurov F.I.

Ташкентская медисинская академия, Узбекистан

✓ Resume

Objective: to evaluate the effectiveness of the use of clomiphene citrate-containing drug in ovulation stimulation in women of late reproductive age with low ovarian reserve.

Materials and methods. The study included 60 women with reduced ovarian reserve, of which: I - the main group included - 30 women with low ovarian reserve and II - 30 women with extremely low ovarian reserve treated with clomiphene citrate containing a drug for ovarian stimulation, the comparison group consisted of - 20 women with a similar pathology, but refused to take a clomiphene-containing drug. All patients were prescribed clomiphene citrate containing substances to stimulate ovulation. The assessment of the ovarian reserve in women was carried out by assessing its biochemical and echographic markers.

Results. In group I patients, ovulation was achieved in 23 (76.7%) patients. Of these, 2 (11.7%) ovulated after the second cycle at a dose of 100 mg and in 5 (29.4%) after the third month of ovulation at a dose of 150 mg of clomiphene citrate-containing drug per day. Pregnancy occurred in 15 (73.0%) patients of this group: in one patient in the first cycle of treatment when taking 50 mg of clomiphene citrate-containing preparation, in the second in the third cycle of ovulation stimulation at a dose of 100 mg of this drug. In the 2nd group of patients, ovulation was achieved in 21 (70.0%) patients. Three (10%) and two (6.7%) of them ovulated after the second and third months of stimulation using 100-150 mg of clomife-containing drug per day. Pregnancy occurred in 15 (66.7%) patients of this group. Pregnancy in the comparison group occurred in 3 (15.0%) patients.

Conclusion. The use of clomiphene citrate-containing drug in women from late reproductive age with low and extremely low ovarian reserve leads to the induction of ovulation in 76.7% and 70.0% of women, and the onset of pregnancy in 73.0% and 66.7% of women, respectively.

Key words: late reproductive age, ovarian reserve, ovulation stimulation, clomiphene citrate containing substances.

Dolzarbligi

Ayolning yoshi tuxumdonlar zahirasini belgilovchi eng muhim fiziologik omildir [1,2]. Yoshga bogʻliq follikulalar sonining fiziologik kamayishi tugʻilish uchun juda muhimdir. Ayollarda bu muammo sababli bepushtlik bilan davolanishga murojaat qilishlarining tobora keng tarqalgan sababiga aylanib bormoqda [3,4]. Ayollarda reproduktiv qarish tuxumdonlardagi ootsitlarning soni va sifati yoshga qarab kamayib borishi haqidagi umumiy qabul qilingan nazariyaga amal qiladigan jarayondir [5,6]. Tuxumdonlarning qarishi follikulalar guruxi saqlanadigan ootsitlar soni va sifatining pasayishi bilan bogʻliq fiziologik jarayondir [7,8]. Tuxumdonlar zahirasi kamaygan kech reproduktiv yoshdagi ayollarda ovulyatsiyani ragʻbatlantirishda klomifen sitratni oʻz ichiga olgan Duinum® preparatini samaradorligini baholash boʻyicha nashr etilgan tadqiqotlar hozirgacha mavjud emas [9,10].

Past tuxumdon zaxirali kech reproduktiv yoshdagi ayollarda klomifen sitratni oʻz ichiga olgan preparatlarning follikulogenez va endometriy qalinligiga qay darajada taʼsir qilishi haqidagi savolga hanuzgacha aniq javob topilmagan. Yuqorida aytilganlarning barchasi past tuxumdon zaxirali kech reproduktiv yoshdagi ayollarda tuxumdonlarni ragʻbatlantirish va fertillikni tiklash uchun klomifen sitratni saqlovchi preparatning samaradorligini baholashga bagʻishlangan ushbu izlanish tadqiqotning dolzarbligini taʼkidlaydi.

Tadqiqotning maqsadi past tuxumdon zaxirali kech reproduktiv yoshdagi ayollarda ovulyatsiyani ragʻbatlantirishda klomifen sitrat saqlovchi preparat samaradorligini baholash.

Material va usullari

Tadqiqotga 60 nafar past tuxumdon zaxirali ayollar kiritildi, ulardan, 1- guruxni 30 nafar past tuxumdon zaxirali ayollar, II -guruxga 30 nafar oʻta tuxumdon zaxirasi oʻta past ayollar tashkil etdi. Nazorat guruxini - 20 nafar yosh reproduktiv yoshdagi ayollar tashkil etdi. Barcha ayollarga ovulyatsiyani ragʻbatlantirish maqsadida klomifen sitrat saqlovchi dori berildi. Tuxumdonlar zahirasini baholash uning biokimyoviy va exografik markerlarini oʻlchash orqali amalga oshirildi. Tadqiqotga kiritilgan ayollarning oʻrtacha yoshi $35,5 \pm 0,2$ yoshni tashkil etdi. Tadqiqotda klinik, gormonal, ultratovush va statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Chanoq aʼzolarining ultratovush tekshiruvi SAMSUNG (Koreya) apparatida mos ravishda 3,5-4,5 va 6-7 MGts chastotali transabdominal va transvaginal datchiklar yordamida amalga oshirildi.

Mazkur tadqiqotda biz tuxumdonlarni ragʻbatlantirish maqsadida ilk bor klomifen sitrat saqlovchi Duinum® preparatidan foydalandik. Ushbu preparatni ayollarga berishda biz ularda aniqlangan tuxumdonlar zahirasini qay darajada ekanligini hisobga olgan holda berdik.

Olingan natijalarni statistik qayta ishlash Statistica for Windows 7.0 dasturi yordamida amalga oshirildi. Maʼlumotlar $M \pm m$ sifatida taqdim etiladi. $p < 0,05$ ga toʻgʻri keladigan farqlar statistik ahamiyatga ega deb hisoblandi.

Natijalar va tahlillar

Barcha ayollarda tuxumdonlar zahirasining darajasiga qarab, quyidagi sxema boʻyicha klomifen sitratini oʻz ichiga olgan preparat yordamida ovulyatsiya ragʻbatlantirildi: 1- guruxga kiruvchi past tuxumdon zaxirali ayollarda ovulyatsiyani ragʻbatlantirish 1-oyda, hayz siklining 3-7-kunlari orasida 1 tabletkadan 1 marta 5 kun davomida (50 mg) ichish tavsiya qilindi. Xayz siklini 2-oyida xayzni 3-7 kunlari, tuxumdonlar ovulyatsiyani ragʻbatlantirishni 1 tabletkadan 2 marta 5 kun davomida (100 mg), xayz siklini 3-oyida xayzni 3-7 kunlari esa 1 tabletkadan 3 maxaldan (150 mg) 5 kun davomida ichish buyurildi.


2-guruxga kiruvchi oʻta past tuxumdon zaxirali ayollarda ovulyatsiyani ragʻbatlantirish 1-oyda, hayz siklining 2-6-kunlari orasida 1 tabletkadan 1 marta 5 kun davomida (50 mg) ichish tavsiya qilindi. Xayz siklini 2-oyida xayzni 3-7 kunlari, tuxumdonlar ovulyatsiyani ragʻbatlantirishni 1 tabletkadan 2 marta 5 kun davomida (100 mg), xayz siklini 3-oyida xayzni 3-7 kunlari esa 1 tabletkadan 3 maxaldan (150 mg) 5 kun davomida ichish buyurildi.

Xayz sikli dinamikasida va davolanish vaqtida tuxumdonlar funksiyasini ragʻbatlantirish samaradorligini baholash maqsadida ultratovush yordamida follikulometriya oʻtkazildi va endometriyning qalinligi oʻlchandi. Ultratovush tekshiruvida endometriyning qalinligi va exogenligi, hayz davrining 8, 12 va 14-kunlarida etakchi follikullarning soni va hajmini shuningdek xayzning ikkinchi yarmida sariq tana hosil boʻlishi baholandi.

Ovulyatsiyani ragʻbatlantirish uchun klomifen sitrati preparatini oʻz ichiga olgan olgan bemorlarning I-guruhida maksimal follikulaning diametri sezilarli darajada ($p<0,05$) oʻsdi va oʻrtacha $2,2 \pm 0,4$ sm.ni tashkil etdi, II- guruhda ushbu koʻrsatkich $2,0 \pm 0,3$ sm.ni tashkil etdi. Ushbu ikkala guruh ayollarida endometriyning qalinligi ham sezilarli darajada oshdi ($p<0,05$) va I-guruhda oʻrtacha $0,9 \pm 0,03$ sm va II-guruhda $1,0 \pm 0,2$ sm.ni tashkil etdi. Shu bilan birga, ushbu koʻrsatkichlar boʻyicha ikki guruhni taqqoslash shuni koʻrsatdiki, 1-guruhdagi bemorlarda maksimal follikulaning diametri va endometriyning qalinligi 2-guruh mos koʻrsatkichlaridan sezilarli darajada oshib ketgan ($p<0,05$).

I-guruhdagi ayollarda ovulyatsiya 23 (76,7%) nafarida sodir boʻldi. Ulardan 2 tasida (6,6%) ovulyatsiya ikkinchi xayz siklida ragʻbatlantiruvchi preparatni kuniga 100 mg ichgach sodir boʻldi. Bir (3,3%) nafar bemorda esa uchinchi davolash siklida ragʻbatlantiruvchi preparatni kuniga 150 mg etkazganda sodir boʻldi. Homiladorlik ushbu guruhdagi 17 (73%) nafar bemorlarida yuz berdi. bir nafar bemorda ovulyatsiyani ragʻbatlantirishning birinchi siklida klomifen sitrat saqllovchi preparatni miqdori 50 mg miqdorda qabul qilganda, ikki nafarida esa ovulyatsiyani ragʻbatlantirishning uchinchi siklida klomifen sitrat saqllovchi preparatini 100 mg dozada qabul qilganida sodir boʻldi.

II-guruh bemorlarida ovulyatsiya 21 (70,0%) nafar bemorlarda sodir boʻldi. Ulardan 3 (10,0%) nafarida ovulyatsiya klomifensitrat saqllovchi preparatni kuniga 100-150 mg qoʻllash orqali ikkinchi va uchinchi ragʻbatlantirish oylarida sodir boʻlgan. Taqqoslash guruhidagi ayollarda homiladorlik 3 (10,0%) nafarida sodir boʻlgan (rasmga qarang).



Rasm. Klomifen sitrat saqllovchi preparatini qabul qilgan ayollarda ovulyatsiya va homiladorlikni salmogʻi, %.

Shunday qilib, klomifen sitrat saqllovchi preparat bilan ovulyatsiyani ragʻbatlantirish samarali usul boʻlib, tuxumdonlar zaxirasi past boʻlgan kech reproduktiv yoshdagi ayollarning 73,3%da ovulyatsiyaga erishishni taʼminlaydi. Ovulyatsiyani ragʻbatlantirish fonida, klomifen sitrat saqllovchi preparatni muddatidan oldin toʻxtatishni talab qiladigan jiddiy nojoʻya taʼsirlarga olib kelmadi.

Olingan maʼlumotlarga koʻra, klomifen sitrat saqllovchi preparatni qoʻllash bilan 60 ovulyatsiya siklida xayz siklining oʻrtalarida diametri 18 mm.dan ortiq boʻlgan follikulaning oʻrtacha soni 44 ta (73,3%)ni tashkil qilib, ulardan barcha follikulalar etilgan va follikulogenezni ragʻbatlantirishga erishilgan, 6 xayz siklida ikkitadan follikula etilishiga erishilgan. Follikula rivojlanishining preovulyator bosqichiga boʻlgan davr oʻrtacha $13,5 \pm 0,2$ kunning tashkil etdi. Ovulyatsiya sodir boʻlganligi tasdiqlangan ayollarda hayz davrining 12-14-kunlarida dominant follikulning oʻrtacha diametri $18 \pm 1,3$ mm.ni tashkil etdi. Ikkala asosiy guruxga kiruvchi ayollardagi etakchi follikulaning oʻlchamlari klomifen sitrat saqllovchi preparatini turli dozalarini qabul qilganda solishtirishni ushbu jadvalda koʻrish mumkin (1-jadvalga qarang).

1 –Jadval

Tadqiqotga kiritilgan ayollarda etilgan follikulalarning oʻlchami, (M±m)

KS saqllovchi preparat dozasi,mg	1-gurux, n=30			2-gurux, n=30		
	XSning 8-kuni	XSning 12-kuni	XSning 14-kuni	XSning 8-kuni	XSning 12-kuni	XSning 14-kuni
50	9,1±0,2	16,0±0,2	19,1±1,2	9,0±0,1	16,0±0,2	19,0±1,2
100	9,0±0,1	15,8±0,1	19,0±1,3	8,8±0,3	15,8±0,3	18,8±1,4
150	8,9±0,3	15,0±0,3	18,9±1,2	8,7±0,4	15,6±0,1	18,7±1,21
P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05

Klomifen sitrat saqllovchi preparatning dozasiga qarab, xayz sikli davomida endometriy qalinligida ham sezilarli farqlar aniqlanmadi (2-jadvalga qarang).

Tadqiqotga kiritilgan klomifen sitrat saqllovchi qabul qilgan ayollarda endometriyning qalinligi, (M ±m)

KS saqllovchi preparat dozasi,mg	1-gurux, n=30			2-gurux, n=30		
	XSning 8-kuni	XSning 12-kuni	XSning 14-kuni	XSning 8-kuni	XSning 12-kuni	XSning 14-kuni
50	7,0±0,1	7,8±0,1	9,2±1,3	6,8±0,2	9,0±0,1	9,2±1,3
100	6,9±0,2	7,7±0,2	9,0±1,1	6,7±0,3	8,8±0,2	8,7±1,2
150	6,7±0,3	7,0±0,3	8,9±1,0	6,5±0,4	7,6±0,3	7,7±1,1
P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05

Tadqiqotga kiritilgan jami ayollardan 44 (73,3%) nafarida ovulyasiya sodir bo'lishiga erishildi. Kech reproduktiv yoshdagi 16 (8,3%) nafar ayolda klomifen sitrat saqllovchi preparati bilan uch oyda rag'batlantirilishiga qaramasdan anovulyasiya holati saqlanib qoldi. Xayz siklining o'rtasida endometriyning o'rtacha qalinligi $9,2 \pm 0,3$ mm.ni tashkil etdi, bu urug'langan tuxum xujayrani implantatsiyasi uchun qulay o'lchamdir. Homiladorlik tadqiqotga kiritilgan ayollardan 42 (70,0%) nafarida sodir bo'lgan. Klomifen sitrat saqllovchi preparatni qo'llashda tuxumdonlarning javob berish reaksiyasini va homiladorlar salmog'ini tahlil qilish, qo'llanilayotgan klomifen sitrat saqllovchi preparatning dozasiga qarab, ya'ni, preparat dozasini kuniga 100mg.ga oshirish homiladorlik tezligini ikki baravar oshishiga olib kelishini ko'rsatdi ($p < 0,05$).

Shunday qilib, klomifen saqllovchi preparatni ovulyasiyani rag'batlantirish maqsadida qo'llash natijasida tadqiqotga kiritilgan ayollarning 42(70%) nafarida homilador bo'lishiga erishildi va u guruxlarda mos ravishda 23(76,7%)nafar va 21(70,0%) nafarni tashkil etdi.

Xulosa

Past tuxumdon zaxirali kech reproduktiv yoshdagi ayollarda klomifen sitrat saqllovchi preparatini qo'llash guruxlarda mos ravishda 76,7% va 70,0% ayollarda ovulyasini sodir bo'lishiga, hamda guruxlarda mos ravishda 73,0% va 66,7% ayollarda homilador bo'lishlikga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абашидзе А.А. Структура бесплодия. О чем не стоит забывать // Справочник врача общей практики. -2014 -№ 4. - С. 81-84.
2. Войташевский К.В. Овариальный резерв и фертильность: сложности XXI века. Рациональный подход к сохранению репродуктивного резерва как залог фертильности и осознанного деторождения. Информационное письмо / Под ред. В.Е.Радзинского. М.: Редакция журнала СтатусПраесенс. -2015.- 24 с.
3. Крстич Е.В., Крстич М., Юдаев В.Н Влияние качества ооцитов и состояния овариального резерва на терапевтический потенциал экстракорпорального оплодотворения у пациенток позднего репродуктивного возраста. // Алманах клинической медицины . - 2014. - №31
4. Назаренко Т. А. Стимуляция функции яичников//Т.А.Назаренко. - 5-е изд., доп. и перераб. - М.: МЕДпресс-информ, 2015. - 288 с.
5. Шукуров Ф.И., Абдуллаев Д.Е., Аюпова Д.К. Тухумдонлардаги яхшисифат структурали ўзгаришлари билан боғлиқ бепуштлики ташхислаш ва даволашда иммуногистхимий усул / Услубий тавсиянома. Тошкент. 2020. –28 б.
6. Abed A.F. Comparing the Diagnostic Accuracy of Anti-Müllerian Hormone and Follicle Stimulating Hormone in Detecting Premature Ovarian Failure in Iraqi Women by ROC Analysis / A. F. Abed, Ye. Maroof, R. Al-Nakkas'h // UMA Rep Biochem Mol Biol. - 2019. – Vol. 8 (2). – R. - 126-131.
7. Furat Rencher, S. Yeffect of resveratrol and metformin on ovarian reserve and ultrastructure in PCOS: an experimental study / S. Furat Rencher, S. Kurnaz Ozbek, C. Yeraldemir, et al//Journal of Ovarian Research.–2018.–Vol.11(1)R. - 55.
8. Garg N. Oogonial stem cells as a model to study age-associated infertility in women. / N. Garg, D.A. Sinclair // Reprod Fertil Dev. - 2015 Jul. - Vol. 27 (6). R. - 969-74.
9. Charles Ye. Miller. Reconstructive and Reproductive Surgery in Gynecology/ Charles Ye. Miller. //Journal of Minimally Invasive Gynecology. - 2012. - N3 - Vol - 19. P - 403.
10. Younis J.S. The "vanishing follicle" in women with low number of developing follicles during assisted reproduction / J.S. Younis, S. Yakovi, I. Izhaki, et al. // Yeur J Obstet Gynecol Reprod Biol. - 2018. – Vol. 220. – R. 6-11.

Qabul qilingan sana 10.10.2022